

IJTIMOYIY TARMOQLARNING JAMIYATGA TA'SIRI

Bekbergenova Ulzada Joldasbaevna

“Berdaq” nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi.

E-mail: ulzadabekbergenova4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14840334>

Annotasiya. Mazkur maqola ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta'siri mavzusiga bag'ishlangan. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatdagi munosabatlarga, xulq-atvorga va madaniy qadriyatlarga ta'sirini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi axborot almashinuvi, individlarning o'zaro munosabatlari va ijtimoiy birlashuvlar masalalari o'rganiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning turli ijtimoiy qatlamlar, stratifikatsiya va integratsiya jarayonlariga ta'siri ko'rib chiqilib, bu boradagi yangi tendentsiyalar va muammolar yoritiladi.

Kalit so'zlari: Ijtimoiy tarmoqlar, jamiyat ta'siri, sotsiologik tahlil, axborot almashinuvi, munosabatlar, stratifikatsiya, madaniy o'zgarish, virtual jamiyat, individ munosabatlari, davlat siyosati, axloqiy masalalar.

THE IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON SOCIETY

Abstract. This article is devoted to the topic of the impact of social networks on society. The study analyzes the impact of social networks on relationships, behavior and cultural values in society from a sociological perspective. The article studies the issues of information exchange, interpersonal relationships and social integration in social networks. It also examines the impact of social networks on various social layers, stratification and integration processes, and highlights new trends and problems in this regard.

Keywords: Social networks, social impact, sociological analysis, information exchange, relationships, stratification, cultural change, virtual society, individual relationships, public policy, ethical issues.

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ОБЩЕСТВО

Аннотация. Данная статья посвящена влиянию социальных сетей на общество. В исследовании анализируется влияние социальных сетей на отношения, поведение и культурные ценности в обществе с социологической точки зрения. В статье рассматриваются вопросы обмена информацией, межличностных отношений и социальной интеграции в социальных сетях. В нем также рассматривается влияние

социальных сетей на различные социальные классы, процессы стратификации и интеграции, а также освещаются новые тенденции и проблемы в этой области.

Ключевые слова: *Социальные сети, общественное влияние, социологический анализ, обмен информацией, отношения, стратификация, культурные изменения, виртуальное общество, индивидуальные отношения, государственная политика, этические вопросы.*

Ijtimoiy tarmoq - bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma. Ijtimoiy tarmoqlarning eng avvalgi shakli elektron e'lonlar taxtasi bo'lib, ularning birinchisini CBBS nomi ostida IBM xodimi U. Kristensen tomonidan 1978-yilda yaratilgan. 1983-yilda allaqachon dunyoda 800 ta, 1988-yilda esa 5000 ta elektron doskalar mavjud edi. Internetda ijtimoiy tarmoqlar 1995-yilda Classmates.com AQSh portali paydo bo'lishi bilan mashhurlikka erisha boshladi.

Loyiha juda muvaffaqiyatli bo'ldi, bu keyingi sanoqli yillarda bir necha o'nlab shunga o'xshash xizmatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Lekin ijtimoiy tarmoq „portlash“ining rasmiy boshlanishi 2003-2004-yillarda AQShda LinkedIn, MySpace va Facebook ishga tushirilgani hisoblanadi. Internetning rus tilida so'zlashuvchi segmentida Odnoklassniki va VKontakte ko'rinishidagi ijtimoiy tarmoqlar 2006-yildan beri ommalasha boshladi (Facebook saytining ruscha versiyasi faqat 2008-yilda paydo bo'lgan)¹.

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Facebook, Instagram, TikTok, Telegram kabi platformalar nafaqat muloqot qilish, balki bilim olish, biznesni rivojlantirish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish vositasiga aylandi. Texnologiyalarning rivojlanishi ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta'sirini yanada kengaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi masofani qisqartirdi. Endi dunyoning istalgan nuqtasida yashayotgan yaqinlar bilan tezkor va arzon aloqa qilish imkoniyati mavjud. Bu nafaqat shaxsiy, balki professional muloqot uchun ham muhim. Yangiliklar, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim resurslari ijtimoiy tarmoqlar orqali tez va qulay tarqatilmoqda. Masalan, YouTube va Telegram kabi platformalarda turli mavzularga oid ta'lim materiallarini topish mumkin. Marketing va reklama uchun ijtimoiy tarmoqlar muhim vositaga aylandi. Kichik biznes egalari minimal xarajatlar bilan mahsulotlarini ommaga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ijtimoiy muammolarni hal qilishda va jamiyatni birlashtirishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni beqiyos.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/ijtimoiy_tarmoqlar

Turli xayriya kompaniyalari, ekologik loyihalar va adolat uchun kurashlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etiladi. Ijtimoiy tarmoqlar ta'limning yangi shakllarini yaratdi.

O'quvchilar va o'qituvchilar uchun masofaviy ta'lim platformalari juda qulaydir.

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatdagi funksiyalari. Axborot tarqatish: Ijtimoiy tarmoqlar ommaviy axborot vositalarining muqobili sifatida ishlatilmoqda. Bu jamiyatning siyosiy, madaniy va iqtisodiy qarashlariga ta'sir qiladi.

Guruhlararo integratsiya: Turli guruhlar orasida aloqalarni mustahkamlashda yordam beradi. Masalan, diniy jamoalar, professional tarmoq yoki qiziqishlar bo'yicha tashkilotlar.

Norma va qadriyatlarni shakllantirish: Ijtimoiy tarmoqlar yangi ijtimoiy normalarni kiritadi (masalan, xabar yozish, kontent ulashish, hashtaglardan foydalanish).

Virtual ijtimoiylik: Real hayotdagi muloqot o'rniga virtual muloqotning kuchayishi. Bu jamiyatning ijtimoiy ko'nikmalariga ta'sir qilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar jamiyatga foyda keltirishi bilan birgalikda salbiy ta'siri kuchaydi. Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri quyidagicha:

1. Ijtimoiy tarmoqlardagi idealizatsiya qilingan hayot tasvirlari insonlarda o'zini past baholash va depressiyaga olib kelishi mumkin. "FOMO" (Fear of Missing Out) sindromi, ya'ni muhim narsalarni o'tkazib yuborish qo'rquvi, ko'plab yoshlarni stressga solmoqda.

2. Vaqtni behudaga sarflash. Ijtimoiy tarmoqlar haddan tashqari foydalanilsa, vaqtni behuda sarflashga olib keladi. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanishni to'xtatadi, balki ish samaradorligini ham pasaytiradi.

3. Maxfiylik masalalari. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi muammosi dolzarb. Ko'pchilik foydalanuvchilar o'zlarining maxfiy ma'lumotlarini tasodifan yoki bilmasdan tarqatib yuboradi.

4. Soxta ma'lumotlar tarqalishi. Ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on xabarlar va mish-mishlar tez tarqaladi, bu esa jamiyatda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi.

5. Yoshlar va Bolalar. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z vaqtlarini ko'p o'tkazib, ta'limdan chalg'ishadi. Bolalar esa ko'pincha yaroqsiz kontentga duch kelishi mumkin.

6. Ijtimoiy ajralish (atomizatsiya): Odamlar virtual aloqaga ko'proq ahamiyat berib, real hayotdagi ijtimoiy bog'lanishlardan uzoqlashadi.

7. Raqamli tafovut (digital divide): Texnologiyaga kirish imkoniyatlari teng bo'lmagani sababli ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkin.

8. Shaxsiy hayot xavfsizligi: Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat orqali shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi sotsiologik jihatdan xavfli holatga olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlar boyicha ko'plab olimlar ilimiy tadqiqot ishlarni olib borgan. Robert Merton tomonidan ishlab chiqilgan anomiya nazariyasi jamiyatda normativ qoidalarning zaiflashishi va shaxs xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi. Bu nazariya ijtimoiy strukturalar va shaxslar o'rtasidagi muvozanatsizlikni, ayniqsa, maqsad va vositalar o'rtasidagi nomutanosiblikni tahlil qiladi.

"Anomiya" atamasi Emil Dyurkgeym tomonidan jamiyatda ijtimoiy qoidalarning zaiflashgan yoki yo'q bo'lib ketgan holatini ifodalash uchun ishlatilgan. Merton bu tushunchani kengaytirib, anomiyani jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlar va ushbu maqsadlarga erishish vositalari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keluvchi ijtimoiy muammo sifatida ko'rsatgan. Sotsiolog olim R. Merton ham o'zining "anomiya" asarida quydagicha tariplab o'tadi:

Ijtimoiy tarmoqlarda boylik, shon-shuhrat kabi maqsadlarga yetishish vositalarining ko'rsatilishi jamiyatda ijtimoiy nomutanosiblikni oshirishi mumkin².

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'pincha odamlarning ideal hayot tarzlari, boylik, chiroyli tashqi ko'rinish, muvaffaqiyat va baxt tasvirlari namoyish etiladi. Ushbu tasvirlar ko'pchilik uchun erishib bo'lmay yoki haqiqiy bo'lmagan me'yorlarni yaratadi. Bu jamiyatda ijtimoiy stress va norozilikni oshiradi. Merton nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etiladigan yuqori darajadagi maqsadlar (masalan, boylik va mashhurlik) ko'pincha real hayotdagi imkoniyatlarga mos kelmaydi. Bunday vaziyatda odamlar an'anaviy yo'llar bilan emas, balki osonroq yoki noqonuniy usullar bilan maqsadlariga erishishga intiladilar (masalan, yolg'on kontent yaratish, manipulyatsiya).

Ijtimoiy tarmoqlarda anomiya holati turli muammolarni keltirib chiqaradi:

FOMO (Fear of Missing Out): Boshqalar hayotining mukammalligini ko'rib, insonlar o'zlarini yetarli darajada muvaffaqiyatli deb his qilmaydilar.

Yolg'on axborot va manipulyatsiya: Muvaffaqiyatga tez erishish uchun foydalanuvchilar yolg'on ma'lumotlar tarqatadi.

Ijtimoiy tengsizlik: Tarmoqlarda faqat ma'lum bir guruhlarining muvaffaqiyati yoritilib, boshqalar chetda qoldiriladi.

Mertonning anomiya nazariyasi quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

² I. A. Kox. Ijtimoiy anomiya va ijtimoiy boshqaruv

1. Jinoyatchilik sotsiologiyasi: Ijtimoiy nomutanosiblik jinoyatlarni qanday keltirib chiqarishini tahlil qilishda.

2. Tengsizlik muammosi: Ijtimoiy-iqtisodiy farqlar sababli ayrim guruhlarining qonuniy imkoniyatlardan chetda qolishini tushuntirish.

3. Korrupsiya va jinoyatchilik: Boylik va muvaffaqiyatga noqonuniy yo‘llar bilan erishish sabablarini o‘rganish.

4. Raqamli texnologiyalar: Ijtimoiy tarmoqlarda mavjud ideal tasvirlar va ular keltirib chiqaradigan psixologik stressni tahlil qilish.

Mertonning anomiya nazariyasi ijtimoiy tarmoqlar jamiyatdagi nomutanosibliklarni qanday oshirayotganini va bu muammolarni hal qilish yo‘llarini tushuntirish uchun samarali vositadir. Mertonning anomiya nazariyasi jamiyatdagi strukturaviy tengsizliklar va individual xatti-harakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tushuntiradi. Ushbu nazariya yordamida ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin. Merton kontseptsiyasi ijtimoiy keskinlik va ziddiyatlarni jamiyatdagi manfaatlar taqsimoti asosida tushuntirish uchun keng imkoniyatlar ochdi. U huquq sotsiologiyasida, jinoyat sotsiologiyasida va boshqa amaliy muhim sohalarda qo‘llanildi. N.Smelser amerikaliklarning boylikka erishish muammosiga qarama-qarshi munosabati misolida anomiyaning paydo bo‘lish mexanizmini ochib beradi. Amerikaliklar moliyaviy muvaffaqiyatni quchoqlaydi va hayratda qoldiradi. boylikka erishish madaniy maqsaddir. Ushbu maqsadga erishishning ijtimoiy ma‘qullangan yoki o‘rnatilgan vositalari yaxshi ta‘lim olish va savdo yoki yuridik firmada ishga joylashish kabi an‘anaviy usullarni o‘z ichiga oladi. Biroq, inson haqiqiy vaziyatga duch kelganida, ijtimoiy ma‘qullangan vositalar aholining ko‘pchiligi uchun mavjud emasligi ayon bo‘ladi. Ko‘pchilik yaxshi ta‘lim uchun pul to‘lay olmaydi va eng yaxshi kompaniyalar cheklangan miqdordagi mutaxassislarni yollaydi.³

Shuni ham ta‘kidlaymizki, anomiya ba‘zi hollarda jamiyatda ijobiy rol o‘ynashi mumkin, bu ba‘zi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Masalan, Kristian Bay jamiyatdagi ma‘lum bir erkinlik uchun ma‘lum darajadagi anomiya zarur deb hisoblardi: me‘yorlarni haddan tashqari qattiqlashtirganda, shaxsiy erkinlik cheklangan. Govard Bekker ijtimoiylashuvdagi nomukammallik, ichki qarama-qarshiliklar va ijtimoiy innovatsiyalar tufayli har bir jamiyatda ma‘lum darajada normasizlik yuzaga keladi, deb ta‘kidladi.

³ Merton R. Ijtimoiy nazariya va ijtimoiy tuzilma. Ijtimoiy tuzilma va anomiya. // Sotsiologik tadqiqotlar. 1992. - No 2- 4.

Ijtimoiy anomiyaning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga ta'siri ko'p jihatdan siyosiy va davlat institutlariga, davlat va shahar hokimiyatlari faoliyatiga bog'liq. Barqaror, normal faoliyat ko'rsatadigan jamiyatda ijtimoiy anomiya darajasi tabiiy ravishda past bo'ladi. Boshqa tomondan, huquqiy, axloqiy va boshqa me'yorlar hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy institutlarning samarali tizimi mavjud bo'lgandagina barqaror ijtimoiy rivojlanish mumkin bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotini sezilarli darajada o'zgartirdi. Ular orqali odamlar bilim olishadi, biznesni rivojlantirishadi va global muammolarni muhokama qilishadi.

Biroq, texnologiyalarni to'g'ri boshqarish muhimdir, aks holda ularning salbiy ta'siri jamiyatda muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, har bir inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda vaqtini samarali boshqarishi va ulardan foydali maqsadlar uchun foydalanishi kerak. Sotsiologik nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlar jamiyatning turli qatlamlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ular nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy hayotning muhim bir qismiga aylangan. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlar jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashda ham, muammolarni keltirib chiqarishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu fenomenni chuqur o'rganish jamiyatni rivojlantirish strategiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Maqsadimiz – ijtimoiy tarmoqlarni yanada samarali vositaga aylantirishdir!

REFERENCES

1. Merton R. Ijtimoiy nazariya va ijtimoiy tuzilma. Ijtimoiy tuzilma va anomiya. // Sotsiologik tadqiqotlar. 1992. - No 2- 4.
2. I. A. Kox. Ijtimoiy anomiya va ijtimoiy boshqaruv
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/ijtimoiy_tarmoqlar
4. Seitjanova K. FROM THE HISTORY OF CHORAL PERFORMANCE //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 10. – C. 690-692.
5. БАЙХОДЖАЕВ А., БЕКПОЛАТОВА А. SEITJANOVA Kamar //Journal of Culture and Art. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 126-130.
6. Сеитжанова К. Школа будущего это школа «информационного века» //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 654-657.
7. Seytjanova Q. et al. Amaliy metodlar vositasida o'quvchilarda vokal-xor malakalari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 892-896.
8. Seitjanova K. The Skill of a Conductor is the Ability to Express a Performance //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 27. – С. 177-178.

9. Seitjanova K. MUSIQIY ASARLAR TAHLILI FANINING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 24. – C. 41-44.
10. Bekpolatova A., Seitjanova Q. OPERA GENRE, ITS HISTORICAL DEVELOPMENT AND ITS PLACE IN KARAKALPAK COMPOSING COMPOSITION TODAY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – C. 92-96.